

Uzbekiston Respublikasi xalq ta`limi vazirligi

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika
instituti

Geografiya kafedrası

«Landshaftshunoslik» fanidan

MA`RUZA MATNI

Nukus - 2017

1 –MAVZU: KIRISH

R e J A

- 1.Landshaftshunoslik asoslari fanining asosiy g`oya va tamoyillari
- 2.Fanning maqsadi va vazifalari
- 3.Landshaftshunoslik geotizimlar haqidagi fan sifatida
- 4.Landshaftshunoslikning geografiya fanlari ichida tutgan o`rni va ahamiyati

Geografiya mutaxassisligining geografiya fanlari bakalavrlari tayyorlash o`quv rejasiga muvofiq respublikamizdagi bir qator universitetlarda “Land-shaftshunoslik asoslari” kursi o`qitilmokda. Bu kurs ko`p qirrali universitet ta`limi berishning asosiy tamoyillariga ko`p jihatdan mos keladi. Land-shaftshunoslik metodologiyasini ilmiy-nazariy tomonlarini egallab olish nafaqat tabiiy geografiya, balki u bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy geografiya va boshqa ko`pgina xususiy geografik fanlar bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham birdek zarur bo`lib qolmokda. Ayniqsa tabiiy resurs-lardan to`g`ri va oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishi va buzilishini oldini olish, ya`ni muhofaza qilish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni hal qilishda ishtirok etadigan mutaxassislarning landshaft-shunoslikdan puxta bilimga ega bo`lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Landshaftshunoslik asoslari” kursi talabalarda er landshaft qobig`i-ning bir butunligi, uning barcha komponentlari bir-biri bilan o`zaro

bog`liq va aloqador ekanligi, ular orasida murakkab va xilma-xil tabiiy jarayonlar bo`lib turishi haqidagi tushunchani shakllantirishga, er landshaft qobig`ini tashkil qiluvchi geotizimlar haqidagi bilimlarni egallashga qaratilgandir.

Landshaftshunoslik er yuzasida ob`ektiv mavjud bo`lgan turli-tuman landshaftlarni aniqlash, xaritaga tushirish, ularni ta`riflab berish bilan shugullanadi. Landshaftlarning hosil bo`lishini, o`tmishda, hozirda va kelajakda qanday bo`lishini, ularning ichki tuzilishini, rivojlanishini va ularda ro`y beradigan turli tabiiy geografik jarayon va hodisalarni, jumladan modda va energiya almashinishini o`rganadigan fandır. Landshaft-lardan halk ho`jaligida to`g`ri va oqilona foydalanish hamda ularni samaradorlashtirish masalalari ham landshaftshunoslik vazifasiga kiradi. Olimlar fikricha 1950-1960 yillarda landshaftshunoslik geografiyaning eng muhim qismi, o`zagi va metodologik asosi sifatida shakllangan.

Landshaftshunoslik tabiiy geografiya fanlari tizimiga kiradi. Tabiiy geografiya fani ilgari surgan, tabiatdagi barcha komponentlari o`zaro bog`liq, bir-biriga doimo ta`sir etib turadi degan g`oya landshaftshunoslik nazariyasining negizini tashkil qiladi. Landshaftshunoslikning ob`ekti tabiiy geografiyaning o`rganish ob`ekti bilan bog`liq va uning tarkibidadir.

Tabiiy geografiya fanining tarixiga nazar tashlasak, uning o`rganish ob`ektini asoslab berishga azaldan urinib kelinganini ko`ramiz. Ammo bu masalani nisbatan samarali hal etilishi akademik A.A.Grigor`evning (1932, 1937) geografik qobiq haqidagi ta`limoti bilan bog`liq bo`ldi. Bu ta`limotning asosiy mazmuni urning ustki qismi sifat jihatdan alohida o`ziga xos bo`lgan qobiqdan tuzilganligi va u o`zaro uzviy bog`liq bo`lgan bir-biriga

faol ta'sir etib turadigan turli geosferalar (litosfera, atmosfera, gidrosfera) dan tashkil topganligi hamda o'zida organik hayot va murakkab tabiiy geofafik jarayonning mavjudligidadir. Shuning uchun ham tabiiy geografiya fani geografik qobiqni dialektik yaxlit holda o'rganadi. Tabiiy geografiyani o'rganish ob'ekti geografik qobiq ekanligini akademik S.V.Kalesnik (1947-1955) ham ta'kidlab, geografik qobiq keng ma'noda, rel'ef, geografik tog' jinslari va yotqiziqlari, iqlim, suvlar, tuproq qatlami va organik dunyoning majmuasidan iboratdir deb yozadi. Boshqa ko'pgina etuk geograf olimlar ham tabiiy geografiyaning predmeti erning aynan shu qismi ekanligini e'tirof etishadi. Ammo uni turlicha nom bilan ataydilar. Masalan, Yu.K.efremov (1969) va D.L. Armand (1975) "landshaft qobig'i" deb, A.G.Isachenko(1965) "epigeosfera" deb, I.M.Zabelin (1978) "biogeosfera" deb, R.I.Abolin (1914) "epigenema", e.M.Lavrenko (1949) esa "fitogeosfera" deb ataganlar.

Geografik qobiqning yuqoridagi va pastki chegaralarini ham geografik adabiyotda bir xil talqin qilinmaganligini ko'rish mumkin.

A.A.Grigor'ev (1937) geografik qobiqning yuqoridagi chegarasini er yuzidan 30 km balandda, ya'nn stratosferadagi azon gazi qatlamidan, pastki chegarani esa erning ichki qismida 100-120 km chuqurlikda, ya'ni tektonik kuchlar harakati so'ngan joydan utkazadi.

S.V.Kalesnik (1970) yuqoridagi chegarani stratosferaning quyi qatlamlari bo'ylab er yuzidan 25-30 km balanddan, pastki chegarani esa er yuzasidan 500-800 km pastdan o'tkazadi va litosferannng eng yuqori qatlamlarinigina kiritadi.

L.G.Isachenko (1965) geografik qobiq deganda troposfera, gidrosfera hamda litosferaning 5-6 km qalinlikdagi yuqori qatlamlarini tushunadi.

I.M.Zabelin (1978) fikricha, geografik qobiqning yuqoridagi chegarasi troposferaning yuqoridagi chegarasi bilan mos keladi va dengiz satxidan 10-12 km balanddan o`tadi. Pastki chegarasi materiklarda 5 km chuqurlikda, okeanlar ostida esa o`rtacha 4 km pastda o`tadi.

Shunday qilib, geografik qobiq planetamizning ustki bir necha o`n km qalinlikdagi qismini o`z ichiga olib, bir-biriga o`zaro ta`sir etib turadigan va o`zaro bog`liq bo`lgan geosferalar (atmosfera, litosfera, biosfera)ning majmuasidan iboratdir. U juda murakkab tuzilgan, doimo rivojlanib turadigan, bir butun va sifat jihatidan o`ziga xos bo`lgan moddiy tizimdir.

Har bir geosfera moddanng ma`lum bir agregat holatini aks ettirsa, geografik qobiqda turli holatdagi moddaning birgalikda kelishini ko`ramiz. Undan tashqari organik moddaning mavjudligi ham geografik qobiqning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Geografik qobiqni tashkil etivchi va uning rivojlanishini taminlovchi geosferalarning o`zaro ta`siri va aloqadorligi asosida uning komponentlari va qismlari orasida ro`y beradigan modda va energiya almashinishi yotadi. Bu almashinish moddaning aylanishi (masalan: suvning aylanishi, kimyoviy unsurlarning aylanishi, biologik aylanish kabilar) shaklida bo`ladi.

Geografik qobiqning eng muhim xususiyatlaridan yana biri uning bir butunligi va yaxlit tabiiy geografik mujassama ekanligidir. Lekin uning bir butunligi, uning turli qismlarida turlicha tabiiy geografik sharoit mavjudligini inkor etmaydi. Boshqacharok qilib aytganda. geografik qobiq-ning o`zi yaxlit tabiiy-geografik mujassama bo`lishi bilan bir vaqtda u turli-tuman katta-kichik tabiiy geografik mujassamalarga tabaqalangandir. Bu tabiiy-geografik mujassamalar katta-kichikligiga

qarab turli ko'lamni egal-laydi. Masalan, ularning eng kattasi geografik qobiq bo'lsa, undan kichikrog'i materiklar va okeanlar, yanada kichikrog'i tabiiy-geografik o'lkalar va h. k.

Geografik qobiqning bunday murakkab bo'lishi uni har tomonlama tadqiq qilishni, yana uni bir butun holda ham, alohida komponentlari bo'yicha ham va katta-kichik qismlari tabiiy geografik mujassamalari bo'yicha ham o'rganishni taqozo qiladi. Natijada geografik qobiqni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganuvchi tabiiy geografiya fanining o'zi ham bo'linib ketadi.

Geografik qobiqni planetar yoki dunyo ko'lamidagi tabiiy geografik mujassama sifatida uni hosil bo'lishi, tuzilishi, dinamikasi, rivojlanishi, taraqqiyot tarixi, unga taalluqli geografik qonuniyatlarni, unda yuz beradigan barcha tabiiy geografik hodisa va jarayonlarni asosan umumiy tabiiy geografiya yoki umumiy er bilimi o'rganadi.

Geografik qobiqni tashkil qiluvchi komponentlarni yoki ularning ayrim xususiyatlarini bir qator maxsus tabiiy geografiya fanlari geomorfologiya, gidrologiya, meteorologiya, iqlimshunoslik, tuproqshunoslik. zoogeografiya, biogeografiya kabilar o'rganadi.

Geografik qobiqni qismlari bo'lgan materiklar, o'lkalardan tortib to tabiiy geografik hududlargacha bo'lgan ko'lamdagi tabiiy geografik mujassamalarni esa **regional tabiiy geografiya** o'rganadi. Bunday tabiiy geografik mujassamalarni aniqlash. xaritaga tushirish va ta'riflab berish kabilarni tabiiy geografiya o'z tadqiqot usullaridan biri tabiiy geografik rayonlashtirish orqali amalga oshiradi. Tabiiy geografik rayonlashtirish vaqtida hududning tabiiy geografik mujassamalariga tabaqalanish

qonuniyatlari. mujassamalarning tashkil topishi, rivojlanishi kabi masalalar ham o'z echimini topishi kerak.

Tabiiy geografik rayonlashtirishning eng kichik birligi hisoblangan tabiiy geografik rayon ham ichki tuzilishi jihatidan bir butun emas. U o'zidan kichik bo'lgan tabiiy geografik mujassamalar ya'ni landshaftlardan tashkil topgandir. Landshaft va undan kichik bo'lgan, ya'ni mahalliy (tipologik) ko'lamdagi tabiiy geografik mujassamalarni esa landshaftshunoslik fani o'rganadi.

Tabiiy geografik mujassamalar tabiiy komponentlarning oddiy yig'indisigina bo'lib qolmay, balki u erda moddaning ma'lum bir o'ziga xos ko'ri-nishidir. Undagi tabiiy komponentlar shunchalik bir-biri bilai birikib ketganki, ularni alohida-alohida bo'lib tashlashning iloji ham yo'qdir.

Tabiiy geografik mujassama so'zining sinonimi ko'p. Geografiyaga oid kitoblarda "tabiiy majmua", tabiiy territorial majmua", "geografik majmua" yoki qisqartirilgan holda «geomajmua" so'zlari ham ishlatilib kelinmokda. Keyingi 30 yil ichida tabiiy geografiya va landshafshunoslikda "geotizim" so'zi ko'plab ishlatilmokda. Bu atamani tabiiy geografiyaga dastlab V.B.Sochava (1963) kiritib, "geotizim" so'zi geomujassamaning sinonimi emas-ligini va geotizim geomujassama tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noni be-radi deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari tabiat tarkib topishining universal shakli bo'lgan tizimlar kabi tabiiy geografiyani ob'ekti ham tubdan tizim ekanligiga ishora qiladi. Geotizim tushunchasi tabiiy geografiyani ham land-shaftshunoslikning ham ob'ektini qamrab oladi. Ob'ektni tizim deb qarash-ning asosida esa uning yaxlitligi va ichki dinamikasining bir butunligi haqidagi g'oya

yotadi. Tizim soʻzining asl maʼnosi ham bir butunlik yoki yaxlitlikni hosil qiluvchi va oʻzaro bogʻliq hamda aloqador boʻlgan unsurlar yigʻindisidir.

Geotizimlar haqidagi taʼlimotning asoschisi V.B.Sochava (1978) fikricha geotizim, bu alohida oʻziga xos boshqaruvchan tizimlar sinfi boʻlib unda tabiatning barcha komponentlari bir-biri bilan bogʻliq va oʻzaro aloqada hamda maʼlum miqdorda yaxlit obʼekt sifatida fazo va kishilik jamiyati bilan oʻzaro taʼsirdadir.

Biz yuqorida sanab oʻtgan tabiiy geografik mujassamalarning har biri, shu jumladan landshaft ham geotizimdir. Landshaft geotizimlar orasida oʻziga xos koʻlarga ega boʻlib, maʼlum bir tabiiy geografik rayonni hosil qiluvchi qismdir. Ayni vaqtida oʻzidan kichik geotizimlarning murakkab va dinamik majmuidan iborat hosiladir.

Shunday qilib, landshaftshunoslik fani er yuzasida mavjud boʻlgan geotizimlarning hammasini emas, balki faqat mahalliy koʻlamdagisini yaʼni landshaft va undan kichik boʻlgan geotizimlarnigina oʻrganadigan fandir, deb qatʼiy aytish qiyin. Chunki umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya va landshaftshunoslik orasidan keskin chegara oʻtkazish qiyin. Ular bir-birini toʻplagan maʼlumotlaridan foydalanishi va bir-birini toʻldirib turishi aniq. Masalan, landshaftshunoslik landshaft va uning morfologik qismlarini oʻrganish orqali katta-katta geotizimlar: rayon, okrug, provintsiya, hatto tabiiy geografik oʻlkalarning ham landshaft tuzilishini yoritib berishi mumkin.

Geotizimlar, jumladan landshaftlar ham insonning yashash muhiti hisoblanadi. Ular inson hayoti uchun zarur boʻlgan havo, suv, tuproq unumdorligi, biomassa kabi koʻplab oʻzini - oʻzi qayta tiklab turadigan tabiiy boyliklar manbai hamdir. Bunday boyliklarni qayta tiklab oʻzini-oʻzi

to'ldirib turishi uchun geotizimlardagi modda va energiya almashinishi tabiatdan qanday yaratilgan bo'lsa, o'shanday saqlanishi lozim bo'ladi. Ammo inson o'zi yashashi uchun qulayroq, yaxshiroq sharoit yaratishga, tabiiy landshaftlarga nisbatan maxsuldorroq bo'lgan madaniy landshaftlarni yaratishga harakat qiladi.

Kishilik jamiyati rivojlanib borgan sari uning tabiatga ta'siri tabiiy boyliklardan foydalanish me'yor va tabiiy sharoitini o'zgartirish imkoniyati ortib borishi shak-shubxasiz. Buning oqibatida tabiatning inson hayotiga va uning xo'jalikdagi faoliyatiga tashqaridan teskari ta'siri ham namoyon bo'la boshlaydi. Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikda yuzaga keladigan nomutanosiblik ayrim joylarda salbiy oqibatlarga sabab bo'lmoqda. Natijada bu mavjud tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni zaharlanish va ifloslanishini oldini olish, inson yashab turgan muhitni har tomonlama yaxshilash yoki samaradorlashtirish masalasi yuzaga keldi. Bu masala ko'p tomonlama o'rganilishni dolzarb bo'lgan, murakkab, juda ham serqirra, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy masaladir. Bu masalani ijobiy hal qilish, qay jihatdan bo'lmasin, u mustahkam ilmiy asosga ega bo'lishi kerak. Ana shu ilmiy asosni ishlab chiqishda ko'plab turli-tuman fanlar, jumladan tabiiy geografiya va uning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslik ham alohida ahamiyatga egadir.

Landshaftlarni tadqiq qilish albatta dala ishlarini o'tkazishni talab qiladi. U yoki bu hududda mavjud bo'lgan geotizimlarni aniqlashda qo'llaniladigan tabiiy geografik izlanishlarning birdan-bir yuli ham landshaft tadqiqotlaridir. Bunday izlanishlar natijasida yaratiladigan landshaft kartalari esa keyinchalik turli-tuman maxsus amaliy kartalarni

ishlashga, tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning chora-tadbirlarini ishlab chiqishda aniq va ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Landshaftshunoslik asoslarining o'rganish ob'ektiga qayerlar kiradi?
2. Landshaftshunoslik qanday fanlar tizimiga kiradi?
3. Geografik qobiq nima?
4. Landshaftshunoslikning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. Olamning bir butunligi deganda nimani tushunasiz?
7. Geotizim nima?
8. Landshaftshunoslikning geografiya fanlarn tizimida tutgan o'rni qanday?
9. Landshaftshunoslik asoslari fanining negizini nima tashkil etadi? 10. Landshaft qobig'iga qayerlarni kiritish mumkin?

TAYaNCh SO`Z VA IBORALAR

1. Tadqiqot ob'ekti 2. Landshaft qobig'i 3. Epigeosfera 4. Biogeosfera 5. Epigenema 6. Fitogeosfera 7. Geografik qobiq 8. Geotizim 9. Geomujassama 10. Olamning bir butunligi.

A D A B I Y o T L A R

2, 3, 4, 9, 11, 13, 14

2-MAVZU: LANDSHAFTLAR GEOGRAFIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

ReJA

1. Landshaftshunoslik faniga asos solinishi
2. Landshaftlar geografiyasining fan sifatida vujudga kelishi va shakllanishi
3. Landshaftlar geografiyasida yangi yo`nalishlarning vujudga kelishi
4. Landshaftlar geografiyasining rivojlanishiga hissa qo`shgan olimlar

Landshaftshunoslikka oid eng dastlabki fikrlarning manbai V.V.Dokuch-aev va uning ilmiy maktabiga mansub bo`lib, tabiatshunoslik va geograf olim-larning izlanishlariga borib taqaladi. Tuproqshunos geograf olim, geografik zonallik qonuniyatini birinchi bor ilmiy asoslab bergan V.V.Dokuchaevning ta`kidlashicha tabiatda bir jism, kuch yoki hodisa ikkinchisi bilan doimo o`z-aro murakkab aloqada bo`ladi va bu aloqadorlik vaqt o`tishi bilan o`zgarib tu-rishi mumkin. Uning fikricha tabiiy komponentlar, hodisalar alohida-alohida holda emas, balki bir butun hududiy majmua sifatida o`rganilishi ke-rak. Tabiat zonasi iqlim, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy mujassamalardir. Bu tabiiy mujassamalar haqidagi g`oyaning yuzaga kelishi edi. V.V.Dokuchaevning tabiatning barcha jonli va jonsiz komponentlar orasi-

dagi oʻzaro nisbatlar va aloqadorliklarni hamda ularni birgalikda rivojlantirish qonunlarini tabiatshunoslik fanlari ichida oʻziga xos, yangi bir fan oʻrganishi kerak degan xulosaga kelgan. Ammo V.V.Dokuchaev "landshaft", "land-shaftshunoslik" soʻzlarini ishlatmagan boʻlsa ham, oʻz fikrlari bilan tabiiy komponentlar haqidagi "Yangi geografiya"ni yuzaga kelishiga sababchi boʻldi. V.V.Dokuchaev gʻoyalarini keyinchalik uning koʻpgina shogirdlari va hamfikir-lari fanning turli yoʻnalishlarida targʻib qilib, rivojlantirib bordilar.

Tabiiy geografik majmua (landshaft)ni birinchi bor ifodalab berishga urinib koʻrganlardan biri A.A.Borzov (1954)dir. Uning fikricha geografiya - er yuzi toʻgʻrisidagi fandır va u alohida hodisalarni oʻrganmasdan, balki ularni birgalikda oʻrganish kerak. Boshqacharak qilib aytganda, geografiya togʻ jinslarini, iqlim, tuproq, oʻsimlik va hayvonotni alohida-alohida oʻrganmaydi, hatto ularni har birini geografik tarqalishi ham geografiyaning emas, balki boshqa fanlarning vazifasidir. Geografiya esa er yuzasining ayrim qismlarida bu hodisalar birgalikda qanday shaklni - landshaftni hosil qilishini, tuproqlar, suvlar, iqlim, oʻsimlik, hayvonot va inson turli landshaftlarda qanday aloqa boʻlishini, ularning oʻzaro taʼsiri qanday koʻrinishlarda boʻlishini oʻrganadi. Bir landshaftni ikkinchisiga qanday taʼsir etishini aniqlaydi. Umuman er yuzasi qanday landshaftlardan tuzilganligini tushnishga, ularning har birini mavjudligini, tarqalishini va oʻzaro taʼsir qonunlarini tushuntirib berishga harakat qiladi.

Landshaft haqidagi tasavvurni ifodalab berishga birinchilar qatorida L.S.Berg (1913) ham harakat qilgan. U oʻzining "Geografiyaning predmeti va vazifalari" nomli maqolasida landshaft haqidagi oʻz fikrini bayon qilar ekan shunday yozadi. "Geografik izlanishlarning natijasi ham tabiiy, ham

madaniy landshaftlarni o`rganish va ta`riflab berishdan iboratdir", shu bilan birga landshaftlarni tashkil etuvchi omillar bir-biriga qanday ta`sir ko`rsatishi va qanday aloqada bo`lishi ham o`rganilishi kerakligini ta`kidlab o`tadi.

L.S.Bergning ifodalashi bo`yicha landshaft shunday bir joyki, unda rel`ef, iqlim, o`simlik va tuproq qatlami garmonik (uyg`unlashib ketgan) bir- butunlikni tashkil qilib, erning ma`lum bir tabiat zonasi bo`ylab tipik qaytalanib turadi. Bu geografik landshaft haqidagi eng dastlabki ilmiy ta`riflardan biri bo`lib, unda landshaft tabiat zonasiing bir qismi ekanligiga va u tabiiy geografiyaning predmeti ekanligiga ishora qilinadi. Ilmiy geografiyaning asosiy vazifasi tabiiy havzalarni, o`simliklar, tuproq va hayvonot dunyosini o`zining ma`lum tarkibi va xususiyatlarini shunday rejada saqlab qoladiki, ular orasidagi o`zaro ta`sir jarayonlarida bir butunligi saqlanishi mumkin bo`ladi.

B.B.Polinov fikricha "landshaft" atamasi umumiy tushuncha bo`lib, uning katta-kichik darajasi izlanishlarning miqyosiga bog`liqdir. Shuning uchun turli taksonomik qiymatga ega bo`lgan landshaftlarning aniqlash, xaritada ko`rsatish mumkin bo`ladi. Bundan tashqari B.B.Polinov landshaftlarni dinamik holatiga e`tibor berib, landshaftlarning tarkibiy qismlari orasidagi o`zaro bog`liqlikni muvozanat holatda emas, balki u doimo harakatda bo`ladi hamda landshaftlar evolyutsiyasining ya`ni asta-sekin va muttasil rivojlanib borishi hamda uning landshaft o`rnida boshqasi hosil bo`lishi mumkinligini uqtirib o`tadi.

I.V.Larin (1926) ham dalada olib borgan landshaft tadqiqotlarini tabiiy geografik majmualar haqiqatdan ham ob`ektiv mavjud bo`lib, ularni aniqlash xaritaga tushirish va ta`riflab berish mumkinligiga ikror bo`ldi.

R.I.Abolin, B.B. Polinov, I.V.Larin, A.D. Gojevlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida yana bir narsa ayon bo'ldiki, u ham bo'lsa kichik mujas-samalarni tashkil qilar ekan, ya'ni ular turli ko'lamda bo'lishi mumkin ekan. Ularning eng kichigini, tabiiy mujassamalarga boshqa bo'linmaydiganini elementar landshaft, mikrolandschaft yoki epimorfa deb atalar ekan.

Shunday qilib, 1930-yillarga kelib landshaft faqat geograflargina emas, balki ko'pchilik tabiatshunos olim va mutaxassislarni ham o'ziga jalb etdi, ular tomonidan e'tirof etila boshlandi. Shu vaqtlardan boshlab landshaft-shunoslik taraqqiyoti tarixida yangi bosqich, ya'ni landshaft haqida tushunchani aniqlashtirish, landshaft haqidagi ta'limotni nazariy jihatdan umumlash-tirish va muhimlashtirish bosqichi boshlandi. Ana shunday umumlashtirishlar-dan dastlabkisi, L.S.Bergning "SSSRning landshaft geografik zonolari" (1930) degan kitobidir. Unda yozilishicha ,geografik landshaft shunday bir hodisa va jarayonlarning guruhlashgani yoki majmuasini, unda rel'ef, iqlim, tuprok, suvlar, o'simliklar qoplami va hayvonot dunyosi hamda insonning ho'jaligidagi faoliyat ham uyg'unlashib ketgan landshaftni tashkil qiluvchi omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligini o'rganishdir, deb yozgan edi u.

L.S.Bergning landshaftlar, landshaft zonolari haqidagi dastlabki ishlari bosilib chiqishi bilanoq, boshqa rus tabiatshunoslari ayniqsa geobotanik, tuproqshunos, o'rmonshunos olimlar tomonidan landshaft haqidagi g'oyaga qiziqish yanada ortib ketdi. Ularning izlanishlari bilan bevosita yirik masshtabli aniq dala tadqiqot ishlari boshlandi. Natijada dastlabki land-shaft xaritalari tuzila boshlandi. Bunday izlanishlar, albatta amaliy maq-sadlarni ko'zlagan holda ayniqsa yangi erlarni o'zlashtirish

maqsadida amalga oshirildi. Bir vaqtning o'zida landshaft tushunchasining ta'rif ham sayqal-lana boshladi.

O'rmonshunos G.F.Morozov (1913) fikricha, har qanday hudud o'zining tabiiy sharoitiga qarab landshaftlarga, ya'ni tabiiy birliklarga bo'linadi. Bu birliklar bir tomondan iqlim, ikkinchi tomondan geologik shart-sharoit, rel'ef uchinchi tomondan esa o'simlik va hayvonot dunyosi kesishadigan nuqtaning yoki tugunni tashkil qiladi.

Geobotanik R.I.Abolin (1914)ning ham landshaftshunoslik va tabiiy geografik rayonlashtirishga oid izlanishlari e'tiborga loyiq. Uning fikricha urning mujassama landshaft qobig'i (epigenema) tabiiy zonalanishga muvofiq holda epizonalarga, ular esa o'z navbatida joyning geologik, tektonik va orografik tuzilishga qarab epioblastlarga, ular esa yana epitiplarga bo'linadi. Epitiplar esa boshqa bo'linmaydigan kichik tabiiy birlik, epimorflardan tashkil topgan.

Bu tabiiy geografik rayonlashtirishning dastlabki taksonomik birliklar tizimi edi. R.I.Abolinning 1929 yil tuzgan Qozog'istonning janubiy qismini tuproq-geobotanik xaritasi esa o'zining mazmuni jihatidan hozirgi zamon landshaft xaritalaridan qolishmaydi.

1920 - yillarning o'rtalariga kelib landshaftlarni xaritaga tushirish bilan shug'ullangan B. B. Polinov o'zining "Landshaft va tuproq" (1925) degan asarida landshaft tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: - Landshaft deb er yuzasining shunday bir qismiga aytiladiki, u erda iqlim geologik yotqiziqlar, rel'ef, suv mavjud. Keyinchalik, 1938, 1947, 1948 yillarda L.S.Berg landshaft haqidagi tushunchani aniqlashtirishga bir necha bor harakat qildi va landshaft tabiiy chegara bilan chegaralangani, xususiyni umumiyga va umumiyini xususiyiga o'zaro ta'sir etib turishni

hamda landshaftlar o'zgarib turishga moyil ekanini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari landshaft o'z navbatida "fatsiya"-larga bulinishi fatsiyalar esa eng kichik tabiiy geografik birlik sifatida boshqa bo'linmasligini, shu bilan birga fatsiyalarni hamma elementlari va ular orasidagi aloqadorlar bir turda ekanini aytib o'tadi. Landshaftlarni dinamik holatda bo'lishi L.S.Bergning diqqat- e'tiboridan chetda qolmagan. Uning fikricha biron bir landshaft haqida to'la tushunchaga ega bo'lish uchun u qachon va qanday sharoitda hosil bo'lgan va keyinchalik qanday ko'rinishga ega bo'lishidan xabardor bo'lishimiz kerak. Landshaft taraqqiyotidagi dinamik jarayonlarni fasliy tarixiy bo'lishi hamda inson faoliyati ta'sirida rivojlanishini unutmaslik kerak.

Yirik landshaftshunos olim N.A.Solntsev ta'biri bilan aytganda kim-ki landshaft muammolari bilan shug'ullanar ekan, albatta L.S.Bergning ilmiy ishlariga murojat qiladi. Chunki u landshaftlar haqidagi ta'limotining asoslarini yaratdi va uning g'oyalari asosida landshaftshunoslik rivojlana boshladi. Ammo L.S.Bergning ishlaridan so'ng landshaftshunoslik rivojlana boshladi. Ammo L.S. Bergning ishlaridan landshaftning xajmi, katta-kichikligi yoki ko'lam qanday, regional birlikmi yoki tipologik birlikmi degan savollarga javob topish qiyin edi. Uning O'rta Sibir yassi tog'ligi yoki Qozog'iston burmali tog'lari kabi katta-katta geografik jihatdan anchagina murakkab tuzilgan hududlar ham alohida landshaftlarni hosil qiladi deyishi yuqorida keltirilgan "landshaft erning ma'lum zonasi ichida tipik aylanib turadi" degan fikriga mutlaqo ziddir.

Landshaftshunoslikni taraqqiyot tarixi haqida so'z yuritilar ekan L.G.Ramenskiy (1935-1938) fikrlari haqida to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Chunki landshaftning morfologik tuzilishi haqida dastlabki fikrlar va

landshaftshunoslikda butun boshli bir yo`nalishga asos bo`lgan tushuncha ya`ni "landshaftlar regional birliklardir" degan tushunchani ilgari surgan ham ana shu L.G.Ramenskiydir. U o`zining 1935 yilda e`lon qilingan maqolasida landshaftshunoslik uchun dastlabki eng kichik birlik bo`lib, tabiiy sharoit jihatidan bir turli bo`lgan eng oddiy mujassama - epifatsiyalardir deb yozadi.

Epifatsiyalar uning fikricha tabiatan o`zidan kattaroq bo`lgan mujassamalar yoki tabiiy uchastkalarni tashkil qiladi va ular o`z navbatida kelib chiqishi bir xil bo`lgan ko`shni mikromujassamalar bilan birgalikda mezommujassamlar esa makromujassamalarni ya`ni landshaftlarning hosil qiladi. Landshaftlar bir-biridan son va sifat o`zgarishlari bilan farq qiladi. Shuning uchun har bir landshaft eng kichik tabiiy rayon yoki mikrorayon bo`lib xizmat qiladi.

Keyinchalik L.G.Ramenskiy (1938) mezon mujassamlarning urochishelar deb atadi. Epifatsiyalarning ma`lum bir guruhi ya`ni o`zaro bog`liq va aloqador bo`lganlari birgalikda urochishelarni tashkil qiladi deb ataydi. Uning fikriga qaraganda landshaftni tashkil qiluvchi urochishelar o`zaro issiqlik, namlik va turli moddalar almashinishi orqali bir-biri bilan o`zaro bog`liq va aloqador hamda yaxlit bir moddiy tizimdir. Bu landshaftlarning morfologik tuzilishini ochib berishga qo`yilgan dastlabki qadam edi.

Shunday qilib L.G.Ramenskiy landshaftlarni regional birlik sifatida o`rganish kerakligini targ`ib qilgan va landshaftlarning morfologik tuzilishi haqidagi ta`limotini ishlab chiqqan olimlardan birinchisi desak bo`ladi.

Landshaft regional birlik degan tushunchaning tarafdorlaridan yana biri S. V. Kalesnik (1940-1947) bo`lib, uning fikricha har bir landshaft

geografik qobiqning ajralmas bir qismidir. Landshaft tabiiy geografiyaning asosiy birligidir. Landshaftning kichik boʻlgan mujassamalarining oʻrganish boshqa fanning vazifasidir.

V.V.Dokuchaev izlanishlaridan boshlab, to 40-yillar boshlariga qadar boʻlgan davrda landshaftshunoslikning rivojlanish tarixiga qisqacha yakun yasab quyidagilarni taʼkidlashimiz mumkin:

1. Landshaftshunoslik yuzaga kelishiga avvalo V.V. Dokuchaevning (1892) tabiiy mujassamalar haqidagi gʻoyasi sabab boʻldi. 1990 yilga kelib, tabiiy mujassamalar haqidagi yangi fan yuzaga kelishi maʼlum boʻlib qolgan edi.

2. XX asr boshlarida bajarilgan A.A.Borzov, L.S.Berg, G.F.Morozov. R.I.Abolin, B.B.Polinov, L.G.Ramenskiylarni ilmiy izlanishlarining natijasida landshaft haqidagi taʼlimot yuzaga kela boshladi. Yirik masshtabli landshaft xaritalarini yaratish jarayonida kattami-kichikmi tabiiy geografik mujassamalar haqiqatdan ham obʼektiv mavjud ekanligi va ularni hosil qiluvchi komponentlari xaqiqatdan bir-biriga chambar-chas bogʻliq va oʻzaro aloqador ekanligi maʼlum boʻldi.

3. Nihoyat landshaftlar oʻzidan kichik boʻlgan tabiiy mujassamalar urochi-she va fatsiyalardan tuzilganligi, oʻzaro aloqadorligini landshaftlarning mor-fologik tuzilishi haqidagi tushuncha paydo boʻla boshladi.

1940-yillar oxirlaridan landshaftlarni oʻrganishga boʻlgan qiziqish yanada kuchaydi. Bu borada N.A.Solntsev va unga shogirdlari bajargan izlanish-lar landshaftshunoslikning taraqqiyotiga salmoqli hissa boʻlib kirdi.

Bu vaqtga kelib tabiiy geografik mujassamalar, jumladan landshaftlarning ham, tabiiy komponentlarning ham o`zaro bog`liq tizimi ekanligi va ular turli taksonomik qiymatga ega ekanligi haqida tushunchalar mavjud bo`lib, geografik matbuotda landshaftshunoslikka oid muammoli masalalar tez-tez muhokama qilina boshlandi. Turli hududlarda dalada olib boriladigan landshaft izlanishlari o`tkazila boshlandi va turli aniq ma`lumotlar asosida landshaftlarning tadqiqot usullari ishlab chiqila boshlandi. Oliy o`quv yurtlarida "Landshaft haqidagi ta`limot asoslari" kursi o`qitila boshlandi. Ammo, hali ko`pincha kamchiliklar mavjud bo`lib, ularning asosiysi landshaftshunoslikning umumiy nazariyasi ishlab chiqil-magan edi. Landshaft izlanishlarining amaliyot bilan bog`lanishi hali sust borayotgan. Landshaftshunoslikning nazariy asoslarini yaratish va uni halk ho`jaligida foydalanishda landshaftlarni xaritaga tushirish ishlarining ahamiyati katta ekanligi hammaga ayon bo`lib qolgan edi.

1949 yilda N.A.Solntsevning "Geografik landshaftning morfologiyasi haqida" degan kattagina ilmiy maqolasi bosilib chikdi. U landshaftshunoslikning keyingi taraqqiyotiga ta`sir ko`rsatdi. Bu maqolada landshaft tushun-chasiga yanada to`larok ta`rif berish bilan birga landshaftning morfologik tarkibsi haqila, uni o`rganishning amaliy ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

N.A.Solntsev landshaftshunoslik nazariyasining rivojlanishiga qo`shgan yana bir hissasi shundan iboratki, u yangi ilmiy yo`nalishiing asosiy tushun-chalarini ishlab chiqdi, dalada olib boriladigan landshaft tadqiqotlarishing hamda dalada to`plangan ma`lumotlardan amaliyotda foydalanish yo`llarini ko`rsatib berdi. Bundan tashqari N.A.Solntsev landshaftshunoslikka yana ikki-ta "landshaft turi" va "landshaftning tabiiy

komponentlari" tushunchalarini kiritdi. Landshaft turi tushunchasi landshaftning umumiy zonal xususiyat-lariga e'tiborni qaratdi va geografik jarayonning turiga bog'liq bo'ladi.

Landshaftlar dinamikasi haqida gap borganda N.A.Solntsev eng asosiy masalalardan biri landshaftning har bir komponentining o'рни va ahamiyatini hamda jonli va jonsiz tabiatning o'zaro aloqadorligidagi ahamiyatini aniq-lab olish deb hisoblaydi. Tabiiy mujassamalarning beshta komponenti bir-biriga o'ziga xos omillar orqali ta'sir etib turadi va bu ta'sirlar teng emas. Omillardan ta'siri kuchlisi litogen omil bo'lsa, kuchsizi biotik omillardir.

Landshaftning tabiiy imkoniyati deganda esa har bir landshaftda mavjud bo'lgan, ammo insonning ta'sirisiz foydalanish mumkin bo'lgan ichki imkoniyatlar nazarda tutiladi.

1953 yili A.G.Isachenkoning «Tabiiy geografiyaning asosiy masalalari» nomli kitobining bosilib chiqishi landshaftshunoslik va tabiiy geografiyaning taraqqiyot tarixida alohida va katta voqea bo'ladi. Bu kitobda landshaftlar haqidagi ta'limotning rivojlanishiga dastlabki yakun yasaldi va landshaftshunoslikka oid bo'lgan munozarali muammolar ma'lum ma'noda tanqidiy baholandi. Landshaft haqida tushuncha, landshaftning katta-kichikligi, uning boshqa tabiiy mujassamalarga nisbatan ko'lam haqidagi turli tafovutli fikrlar ham aniqlanadi.

A.G.Isachenko fikricha landshaft geografik qobiqning genetik jihatdan o'ziga xos bir qismiki, u zonal va azonal jihatdan bir turligi bilan ya'ni, umuman tabiiy geografik jihatdan bir turligi bilan tavsiflanadi va o'ziga xos tuzilishi hamda o'ziga xos morfologik tarkibga egadir. Uning fikricha landshaft tabiiy geografik rayonlashtirishning eng asosiy birligi bo'lib

zonal xususiyatlari bo'yicha ham, azonal xususiyatlari bo'yicha ham bir butun bo'lib boshqa bo'linmaydi. Landshaft, agar o'zidan kichik mujassamalarga bo'linsa u o'zining zonal yoki azonal xususiyatini yo'qotib qo'yadi.

Landshaftshunoslik bo'yicha birinchi o'kuv qo'llanmaning muallifi ham A.G.Isachenkadir. Uning 1965 yil nashr qilingan "Landshaftshunoslik asoslari va tabiiy geografik rayonlashtirish" qo'llanmasi keyinchalik qayta ishlanib, 1991 yil darslik sifatida yana shu nom bilan bosmadan chiqarildi. Unda hozirgi zamon landshaftshunosligining nazariy asoslari bayon qilingan.

Landshaftshunoslik fanining taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hissa qo'sh-gan taniqli olimlardan yana biri F.N.Mil'kovdir. U keyingi qariyb 40-45 yil mobaynida landshaftshunoslikda o'ziga xos yo'nalishning, ya'ni "landshaft-umumiy tushunchadir" degan g'oyaga asoslangan yo'nalishning shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

F.N.Mil'kov fikricha, landshaft tushunchasi iqlim, tuproq, o'simlik tushunchalari kabi umumiy tushunchadir. Bu tushuncha hududning katta yoki kichikligidan qat'iy-nazar tadbiq qilinishi mumkin. Masalan, o'rmon landshafti, iqlim, cho'llar landshafti, tog'lar landshafti, botqoqliklar kabi. Uning ta'kidlashicha, landshaft o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan tabiiy narsalar va hodisalar majmuidan iboratdir va bizning ko'z oldimizdan tarixan shakllangan doimo rivojlanishida bo'lgan hamda turli taksonomik qiymatga ega bo'lgan tabiiy geografik mujassamalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Landshaftshunoslik ko'lamini jihatdan cheklanmagan. Jumladan, erna landshaft qobig'ini ham o'rganadigan fandır.

Landshaft qobig`i deganda F.N.Mil`kov boshqa tabiatshunoslar kabi geog-rafik qobiqning o`zinigina emas, balki uning ichida mavjud bo`lgan nisbatan yupqa, o`ziga xos o`rtalik qobiqni tushunadi. Bu qobiq atmosfera, litosfera va gidrosferaning kesishgan va bir-biridan faol ta`sir etib turadigan modda va energiya almashinishi jadal ro`y beraligan organik hayot qaynagan qismida hosil bo`ladi. F.N.Mil`kov ta`biri bilan aytganda, landshaft qobig`i geogra-fik qobiqning biologik fokusidir. Geografik qobiq tabiiy geografiyaning o`rganish ob`ekti bo`lsa, landshaft qobig`i landshaftshunoslik fanining ob`ektidir. Landshaft qobig`i geografik qobiqdan yulib olingan holda emas, balki uning eng ajoyib va o`ziga xos qismi sifatida o`rganiladi. Landshaft va ernaing landshaft qobig`i haqidagi fikrlarni F.N.Mil`kov o`zining qator ilmiy asarlari va o`kuv qo`llanmalarida (1959, 1967, 1970, 1990) keltiradi. Voronej davlat universitetida landshaftshunoslikning va undagi yangi yo`nalish antropogen landshaftshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi ham F.N.Mil`kov nomi bilan bog`liqdir.

2-jahon urushidan keyingi yillar tarixida landshaftshunoslikka oid bo`lgan qiziqish, landshaftlarni o`rganishga bo`lgan e`tiborni kuchayishi aso-san 1960-1970 yillarga to`g`ri keladi. Bu vaqtda landshaftshunoslikka oid ilmiy ishlar, kitoblar, to`plamlar ko`plab nashrdan chiqib boshladi. Landshaftshunoslik masalalari geografiya jamiyati s`ezdlarida va landshaftshunoslikning butunittifoq majlislarida ko`plab muxokama qilina boshladi.

Muhokamaga qo`yilgan masalalar quyidagilardan iborat edi:

1. Landshaftshunoslikning nazariy masalalari. 2. Landshaft tadqiqotlari metodikasi. 3. Amaliy landshaftshunoslik.

1960-yillarning o`rtalaridan boshlab kishilik jamiyatining atrof-muhitga bo`lgan ta`siri ortib kegganligi tabiiy boyliklardan foydalanishdagi ho`jasizlik, katta maydonlarda o`rmonlarning qirilib ketishi, unumli erlardan, suvdan oqilona foydalanmaslik, suv havzalari, tuproq, havoning jadal sur`atlar bilan ifloslanishi orqali tezda sezila boshladi. Endi u yoki bu hayvon yoki u o`simlik to`rini saqlab qolishgina emas, balki insonning o`zi yashab turgan muhiti hisoblangan landshaftlardan bir butun holida muhofaza qilish, tiklash va yaxshilash muammosi dolzarb bo`lib qoldi. Ana shunday murakkab va ko`p mablag` hamda ko`p mehnat talab qiladigan muammoni hal etishning ilmiy asoslarini yaratishda landshaftshunoslikning ahamiyati katta ekanligi ma`lum bo`lib qolgan edi. Natijada landshaftshunoslar oldida faqat landshaftlarni aniqlash emas, balki xaritaga tushirish va ularni ta`riflab berish hamda ularni halk ho`jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan baholash landshaftlarning keyingi rivojlanishini insonniig halk ho`jaligidagi faoliyati ta`sirida qaysi yo`nalishda borishini va o`zgarishini oldindan aytib berish zaruriyati tug`iladi. Bunday masalalarni ijobiy hal etish uchun landshaftshunoslik o`zining an`anaviy uslublaridan tashqari geokimyoviy, geofizikaviy va ekologik usullridan foydalanishga majbur bo`la boshladi. Landshaftshunoslarni landshaftlarda ro`y beradigan modda-energiya almashinishi, landshaftlarni biologik imkoniyatlarini o`rganish qiziqтира boshladi. Bunday masalalarni o`rganish landshaftlarni bevosita joyida geografik yoki landshaft muhitlari tashkil qilib o`rganishni taqoza etadi. Chunki landshaftlardagi biomassa va uning maxsuldorligi moddaning biologik aylanishi va biogeotsiklini suvning harakati va aylanishini modda va energiyaning landshaft komponentlari orasida, landshaftning

morfoloqik qismlari orasida ham bir landshaft bilan qo'shni landshaftlar orasida ko'chib yurishi va taqsimlanishi kabi masalalarini o'rganish shunday muhitlar tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tabiiy geografik va landshaft muhitlarida to'plangan aniq ma'lumotlar tahlili natijasida anchagina nazariy xulosalar yuzaga keldi. Ulardan eng asosiysi landshaft yoki boshqa tabiiy geografiya mujassamalari jumladan geografik qobiqni ham geotizim deb qarash bo'ldi. Shu bilan birga landshaft-shunoslikda funktsional dinamik landshaftshunoslik yo'nalishi shakllana boshladi.

Tabiiy geografik yoki landshaft muhitlarida olib borilgan kuzatishlar natijasida va to'plangan ma'lumotlar asosida u yoki bu landshaftni faqat makonda emas, balki, zamonda ham o'zgarib turishini tadqiq qilish, matematik statistika tadqiqot usullaridan foydalanish va tadbiiq qilish imkoniyatlari tug'ildi.

Umumiy landshaftshunoslikning shu kungacha bo'lgan, karyib 100 yillik rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu fanda bir necha ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lganligini ko'ramiz.

Landshaftshunoslikdagi eng qadimgi va asosiy yo'nalish tarkibiiy - genetik yo'nalishdir. Bu yo'nalish namoyondalari asosan landshaftlarni aniqlash, xaritaga tushirish, ularni morfoloqik tuzilishini, gorizantal va vertikal tuzilishini ochib berish bilan shug'ullanganlar. Bu yo'nalish landshaftlar o'ziga xos geomujassama sifatida kichikroq mujassamalar yig'indisidan iborat degan g'oyaga asoslanadi.

Landshaftlarning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlardan yana biri antropogen landshaftshunoslikdir. Haqiqatdan ham er yuzasida kishi ta'siri bo'lmagan inson tomonidan

o`zgartirilmagan tabiiy landshaftlar kam qolgan. Inson o`z ta`siri bilan landshaft hosil qiluvchi jarayonlarni murakkablashtiradi. Ko`pincha ularni buzadi. Landshaftning morfologik tuzilishini oydinlashtirib yuboradi. Natijada tabiiy landshaftlar o`rnida antronogen landshaftlar hosil bo`ladi. Geotizimlar haqidagi ta`limot ham shu yo`nalishga kiradi.

Landshaftshunoslik ham boshqa fanlar qatorida nazariy masalalar bilan birgalikda amaliy masalalarni hal etishga harakat qiladi va natijada yangi yo`nalish, amaliy landshaftshunoslik yuzaga keladi. Amaliy landshaftshunoslik tadqiqotlarining asosiy mazmuni landshaft haqidagi ta`limotning aso-siy nazariy qoida va usullarini halk ho`jaligiga taalluqli masalalarni echishga tadbqiq etish demakdir. Bu borada bajarilgan dastlabki izlanishlar ko`proq qishloq ho`jaligi maqsadlarida bajarilgai bo`lib, yaxshi natijalar beradi. Landshaft tadqiqotlarining iatijalari yangi erlarni o`zlashtirishda, yul transport kurulishi, shahar, qishloq, sanoat kurulishi va turli -tuman yirik inshoatlar qurilishida, sog`liqni saqlash va rekreatsiya, tabiat muhofa-zasi bilan bog`liq ko`pgina tadbirlarning ilmiy asosini yaratishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin, Madaniy landshaftlarni barpo qilish va land-shaftlarni samarador qilish, amaliy landshaftshunoslikning bir qismidir.

Landshaftshunoslikdagi yangi yo`nalishlardan yana biri - landshaftlarni prognozlash, ya`ni landshaftlar taraqqiyotini, ularning u yoki bu ta`sir natijasida o`zgarishini oldindan aytib berish. Bu yo`nalish dolzarb bo`lishi bilan birga murakkab va sust rivojlanmoqda.

Landshaftshunoslikdagi funktsional - dinamik yo`nalish asrimizning 1960-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Bu yo`nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarning asosiy mazmuni landshaftlarning vaqt mobaynida

o`zgarishiga, landshaftlarning o`z funksiyasini bajarish jabhalariga e`tibor berishdan iboratdir.

A.A.Krauklis (1979) ta`biri bilan aytganda landshaftshunoslikdagi tabiiy -genetik yo`nalish tabiiy geografik rayonlashtirish bilan birgalikda landshaftlarni o`rganishda "makroskopik" yondoshish bo`lsa, funktsional dinamik yo`nalish esa "mikroskopik" yondoshishdir. Ularning birinchisi bo`yicha landshaftlar aniqlanadi, xaritaga tushiriladi, morfologik tuzilishi o`rganiladi. Ikkinchisi bo`yicha esa landshaftlarning ichida ro`y beradigai jarayonlarni ham makonda, ham zamonda o`zgarishini, landshaftlar va ularning morfologik qismlari orasida, komponentlari orasida modda va energiya almashinishini o`rganishga ko`proq e`tibor beriladi.

Bu yo`nalishning hosil bo`lishi bilan landshaftshunoslikka landshaftning holati, landshaftning dinamikasi, landshaftning invarianti, landshaftning o`z vazifasini bajaruvchi kabi tushunchalar kirib keladi.

Landshaftshunoslikka oid muammoli masalalarni hal etishda ekologik yon-dashishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. 1940 - yilda yuzaga kelgan biogeotsenozlar haqidagi ta`limotda tabiatga geografik ko`z bilan qarash bilan ekologik ko`z bilan qarashni bir-biriga juda yaqinlashtirib qo`ydi.

Landshaft o`ziga xos muhit hosil qiluvchi geotizimdir. Unda inson yashaydi. Shuning uchun landshaftlarni inson yashashi va faoliyat ko`rsatishi nuqtai – nazaridan o`rganish kerak bo`ladi. U yoki bu landshaftni qishloq ho`jaligining bir tarmog`i uchun baholanganda ham, o`sha tarmoqda etakchi hisoblangan o`simlik (masalan, paxta, don va boshqalar)ning o`sishi yoki hayvon (qo`y, echki, qoramol va

boshqalar)ning yashashi va unumdorligini orttirish nuqtai -nazaridan baholasak, bu ekologik yondoshish bo`ladi.

Landshaftlarni tadqiq qilishdagi ekologik yondoshish bir qator amaliy masalalarni hal etishda katta ahamiyatga egadir. Ekologiya o`ziga xos bir filtr bo`lib, to`plangan geografik ma`lumotlarni qishloq ho`jaligida yoki halk ho`jaligining boshqa sohalarida foydalanishdan oldin ana shu filtrdan o`tkazib olish kerak.

Landshaftlarning dinamik holatini aniqlashda ekologik mezon katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning eng tez o`zgaruvchan va kishilarning ho`ja-ligidagi faoliyati ta`sirida aks-sado beradigan komponenti biotadir. Shu-ning uchun ham tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foy-dalanish chora -tadbirlarini ilmiy asoslarini ishlab chiqishda landshaft – ekologik yo`nalishning tadqiqot natijalari juda ahamiyatlidir. Bu yo`nalish geografiyani ekologiya fani bilan tutashgan joyida yuzaga keladi.

Landshaftshunoslik taraqqiyotida hosil bo`lgan yo`nalishlardan biri - estetik landshaft yo`nalishidir. Inson hayotida, uning kundalik kayfiyatining shakllanishida, mehnat faoliyati natijalarining unumli bo`lishida atrof - muhit va landshaftning estetik ko`rinishi katta ahamiyatga egadir. Chiroyli landshaft zavqli mehnat uchun rag`batlantiriladi.

Estetik landshaft yo`nalishining tarbiyaviy jihat va tabiat muhofazasi masalalarining tashviqot qilishda ham ahamiyati mavjuddir.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR

1. Landshaftlar geografiyasining asoschisi kim?
2. Landshaft atamasini birinchi bo`lib kim fanga kiritgan?
3. Landshaft nima?
4. Landshaftshunoslikning rivojlanishiga kimlar hissa qo`shganlar?
5. Nima uchun V.V.Dokuchaevning landshaftshunoslikni asoschisi deyiladi?
6. L.S.Berg landshaftlar geografiyasini rivojlanishiga qanday hissa qo`shgan?
7. Landshaftshunoslik qachon fan sifatida shakllandi?
8. O`zbekiston landshaftlar geografiyasini vujudga kelishida kimlar asosiy rol` o`ynagan?
9. Oliy o`quv yurtlarida landshaftshunoslik fan sifatida qachondan boshlab o`qitilmokda?
10. Landshaftshunoslikka oid dastlabki qo`llanma kim tomonidan va qachon yozilgan?

TAYaNCh SO`Z VA IBORALAR

1. Landshaft 2. Landshaftlar geografiyasi 3. V.V.Dokuchaev 4. L.S.Berg
5. Tabiatshunos olimlar 6. "Yangi geografiya" 7. Landshaft zonasi
8. Landshaft xaritasi 9. Elementar landshaft 10. Mikrolandshaft

A D A B I Y o T L A R

2, 3, 4, 9, 11, 13, 15

3 - MAVZU: LANDShAFT HAQIDA TUShUNChALAR

ReJA

1. Landshaft haqida tushunchalarning vujudga kelishi
2. Landshaft qobig`ining geografik qobiqda tutgan o`rni
3. Landshaftshunoslikda turli yo`nalishlarning paydo bo`lishi
4. Landshaft tushunchasi haqida g`oyalar

Landshaft so`zi aslida nemischa bo`lib, o`zaro aloqadorlik va bog`liqlikni aks ettiruvchi suffiks, adabiy tilda manzara, joyning ko`rinishi degan ma`noni anglatadi.

Landshaft atamasi geografiyaga dastavval deyarli bir vaqtda A.A.Borzov. L.S.Berg, D.F.Morozovlarning ilmiy ishlari orqali tabiiy geografik mujassama so`zining sinonimi sifatida kirib kelgan. Keyinchalik landshaft tushunchasini chuqurlashtirish va uning ta`rifini mukammallashtirish jarayonida tabiiy geograflar uch guruhga bo`linib ketishdi.

Birinchi guruh tabiiy geograflarning fikricha landshaft ham xuddi re-l`ef, iqlim, tuproq, o`simlik tushunchalari kabi umumiy tushunchalardir. Bu holda landshaft atamasi xohlagan ko`lamda tabiiy geografik mujassamlarga nisbatan, ularning katta-kichikligidan qat`iy nazar

ishlatilishi mumkin. Bu tushuncha tarafdorlari (F.N.Mil`kov, D.L.Armand, IO K.efremov, V.I.Proka-ev kabilar) fikricha landshaft bizning ko`z o`ngimizda tarixiy shakillangan va uzluksiz rivojlanishida bo`lgan u yoki bu tabiiy geografik mujassama qiyofa-sida namoyon bo`lgan o`zaro bog`liq va aloqadorlik bo`lgan narsa, hodisalarning yig`indisidir.

Landshaftga berilgan ushbu ta`rifdan ko`rinib turibdiki, landshaft ham, tabiiy geografik mujassama ham ikkalasi bir narsadir. Tabiiy hududiy mujassama so`zi aniq ifodaga egaligiga qaramay, atama sifatida noqulay. Shuning uchun tabiiy hududiy mujassama so`zining ma`nosini anglatadigan, ammo qisqagina va ishlatilishda qulay bo`lgan landshaft atamasidan foydalanish ma`qullandn. Uning fikricha er yuzasidagi barcha landshaftlar birgalikda erning landshaft qopqog`i tashkil qiladi. Bu holda "landshaft qobig`i" atamasi "Geografik qobiq" atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

erning landshaft qobig`i deganda, F.N.Mil`kov (1970) geografik qobiqdan farqli o`laroq, uning o`rta qismida litosfera, atmosfera, gidrosferalarning bevosita bir-biriga tutashib va faol ta`sir etib turadigan hamda organik hayot rivojlanishiga eng qulay sharoit yuzaga kelgan yupqa (qalinligi 200-250 m gacha bo`lgan) qatlamni tushunadi. F.N.Mil`kov geografik qobiqning ichida 4 ta qatlamni ajratadi:

1. Yuqori havo qatlami;
2. O`rta landshaft qatlami;
3. Landshaft orasidagi suv qatlami;
4. Quyi (litosfera) tosh qatlami; ,

Ikkinchi guruh geograflar ta`kidlashicha landshaft ma`lum bir hududni egallagan, o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan regional birlikdir. Masalan,

N.A.Solntsev landshaftni asosiy geografik birlik deb qaraydi va geologik tuzilishi, rel`ef shakllari, er osti va er usti suvlari, mikroiklimi, tuproq xillari, fitogeotsenozlari o`zaro bog`liq bo`lgan birikmalari qonuniy va tipik qaytalanib turadigan genetik jihatidan bir butun hududni landshaft deb ataydi.

Landshaftning ta`rifini boshqacharoq va qisqaroq qilib A.G.Isachenko (1991) quyidagicha ta`riflaydi: Landshaft - mahalliy ko`lamdagi geotizimlarning o`ziga xos yig`indisidan iborat bo`lib o`zining zonal va azonal belgi-lari bo`yicha bir butun hamda genetik jihatidan yaxlit geotizimdir. A.G.Isa-chenko fikricha landshaft o`zidan kichik geotizimlar yig`indisidan iborat bo`lishi bilan bir vaqtning o`zida, o`zidan katta va murakkabroq tuzilgan geotizimning bir qismi bo`lib xizmat qiladi. Shuning uchun landshaftlarni hosil bo`lishini geografik rivojlanishi va tabaqalanishi natijasi deb qarash kerak. Undan tashqari landshaft tabiiy geografik mujassamalarining taksanomik tizimida shunday bir pog`onani egalaydiki, u o`zining va zonal xususiyatlari bo`yicha bir butundir. Demak. tabiiy geografik rayon rayon-lashtirishning eng kichik va qulay asosiy birligidir. A.G.Isachenko fikricha landshaft va tabiiy geografik rayon ikkalasi bir narsadir. Bu holda landshaft bir konturlidir. er yuzasida bir landshaft bir marta uchraydi.

Uchinchi guruh geograflar landshaft tipologik birlikdir degan tushuncha tarafdorlaridir. Ular landshaftlarning nisbatan bir xilligi tushunchasiga asoslanadilar. Bunda landshaft ma`lum xarakterdagi hudud yoki joy deb qaraladi. Bundan tashqari landshaft tabiiy komponentlar (geologik tuzilishlari rel`ef, tuproq, o`simlik va h.k) ning dialektik birligi, majmuasi hamda nisbatan bir xil bo`lgan tabiiy geografik mujassama deb

qaraladi. Landshaftlarni ularning hududiy tarqalishidan qat'iy nazar xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Landshaftga nisbatan bunday ko'z qarashning faol targ'ibotchisi N.A.Gvoz-detskiyning (1973) atashicha, landshaft-tabiiy geografik majmuasining turi, kichik turi, xilidir. Masalan, geomorfologiyada rel'ef turi, tuproqshunoslikda tuproq turi, xili tushunchalari qaysi ma'noda ishlatilsa, tabiiy geografiyada ham shunday ma'noda ishlatilishi kerak. Masalan, dasht tuproq-lari deyilganidek, dasht landshaftlari deyish mumkin. Landshaft tipologik birlik sifatida katta-katta maydonlarni ham yoki kichik joyni ham egallashi mumkin. Bir holdagi yoki bir turdagi landshaft ma'lum hududda katta-katta uchrashi ya'ni ko'p konturli bo'lishi mumkin u yoki bu landshaftning tarqalishi areali, hududi u yoki bu tuproq yoki rel'ef turining tarqalishi areali kabi uzuk bo'lishi mumkin. Ana shunday landshaftlarning ma'lum bir yig'indisi tabiiy geografik rayonlarni tashkil qiladi.

N.A.Gvozdet'skiy fikricha tabiiy geografik regional birliklar va landshaft tipologik birliklari ikki xil tizimidagi birliklardir. Ular geografik qobiqning tabiiy geografik tabaqalanishini o'rganishdagi ikki xil yondashishning natijasidir.

Landshaftlar regional birlik deb qaralganda ular orasidagi har xillikka ko'proq e'tibor berilsa, tipologik birlik deb qaralganda uning nisbatan bir xilligiga e'tibor beriladi.

Landshaft tushunchasiga nisbatan yuzaga kelgan bu uch xil qarash landshaft-shunoslikda hosil bo'lgan uch yo'nalish deyilsa ham bo'ladi.

Landshaftshunoslikka bag'ishlangan ko'pgina ilmiy asarlar, darslik va qo'llanmalarda asosan yuqorida bayon etilgan uch xil tushuncha haqida va

ularning mohiyati haqida soʻz yuritiladi. Ammo ularning qaysi biri haqida yaqin, qaysi biri toʻgʻri degan savolga javob berishda mualliflar u yoki bu guruhga qoʻshilib ketadilar. Biz ham ana shu savolga javob izlash jarayonida yirik landshaftshunos olim, Moskva davlat universitetining professori V.A.Nikolaev ilmiy izlanishlarining natijalariga eʼtibor berishga harakat qildik. Bu olimning 1979 yili bosilib chiqqan "Regional landshaftshunoslik muammolari" degan kitobi uning qariyb 20 yildan ortiqroq vaqtni oʻz ichiga olgan ilmiy izlanishlarnig samarasidir. Bu izlanishlar asosida V.L.Nikolaevning Qozogʻiston dashtlarida olib borgan landshaftlarni aniqlash, xaritaga tushirish, taʼriflab berish, landshaftlarning tuzilishi, dinamikasi, rivojlanishi, yoshi kabilarni aniqlash hamda landshaftlarni xoʻjalik nuqtai-nazaridan baholash, ularning rivojlanish kelajagini oldindan aytib berish kabi masalalarni hal qilish maqsadida toʻplangan juda katta xajmdagi ilmiy maʼlumotlari yotadi.

V.A.Nikolaevning fikricha landshaftni faqat oʻziga oʻziga xos xususiyatiga ega boʻlgan regional birlik deb qarash ham, yoki uni faqat tipologik birlikdir deb qarash ham bir yoqlamalikka olib keladi. Vaholanki, N.A.Gvozdetskiyga oʻxshab, landshaftni tipologik birlik deb tushunish har bir konkret landshaftni tahlil qilishdan kelib chiqishi kerak. Har bir landshaft-tabiiy geografik jihatdan oʻziga xos. Ammo bir vaqtning oʻzida u qandaydir bir tipologik umumiylikning bir qismidir. Xuddi shunga oʻxshash fikrni biz N.A.Solntsevning shogirdlari G.N.Annenskaya va boshqalar (1962) ishida ham uchratamiz. Ularning yozishlaricha landshaft ham uning morfologik qismlari ham boshqa har qanday qoʻlamdagi tabiiy geografik mujassamalar kabi ham regional, ham tipologik yoʻnalishda oʻrganilishi mumkin.

Bu borada A.G.Isachenko (1991) o'z fikrini quyidagicha bildiradi: hodisalarni turlarga ajratish, ularni o'rganishdagi tipologik yondoshish har qanday ilmiy izlanishning, jumladan landshaft izlanishlarning ham zaruriy shartlardan biridir. Ammo tur tushunchasiga o'tgunga qadar ma'lum miqdorda muayyan ob'ektlarni o'rganish kerak. Chunki landshaft turi tabiatda ob'ektiv mavjud bo'lgan ko'plab muayyan mavjud landshaftlarni ilmiy umumlashtirish orqaligina aniqlanadi.

Landshaftshunoslik sohasidagi izlanishlarda alohidalik bilan umumiylikning birligi va qarama-qarshiligini e'tirof etishimiz kerak. Alohida muayyan landshaft haqidagi ma'lumotlarsiz umumlashtirish mumkin emas. Shunday qilib, er yuzasida ob'ektiv mavjud landshaftlarni ma'lum belgilariga qarab umumlashtirish, ya'ni xil, tur, sinf kabilarga birlashtirish mumkin ekan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qilib aytganda landshaft genetik jihatdan bir butun bo'lgan geotizimdir. U bir geologik tuzilishi, bitta rel'ef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga mos bo'lgan, dinamik jihatdan bog'liq bo'lgan urochishelar yig'indisidan iborat. Landshaft bir jihatdan qaraganda zona, provintsiya okrug, rayon kabi regional geotizimlarni tashkil qiluvchi eng oddiy geotizimdir. U geografik qobiqning eng oddiy va eng kichik to'qimasi (birligi) bo'lsa, ikkinchi jihatdan o'zidan kichik bo'lgan urochishe, fatsiya kabi ko'p yaruslik va dinamik geogizimdir. Landshaft qo'shni landshaftlar bilan modda va energiya almashinishi orqali doimo o'zaro ta'sirda bo'lib turadigan ochiq geotizimdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Landshaft deganda nimani tushunasiz?
2. Landshaft atamasi kimlarning ilmiy ishlari orqali fanga kirib kelgan?
3. Landshaftlar geografiyasini vujudga kelishda nechta guruh paydo bo`ldi?
4. Landshaft qobig`i tushunchasi qaysi atamaning sinonimi hisoblanadi?
5. Geografik qobiqning ichida nechta landshaft qatlami ajratiladi?
6. A.G.Isachenko landshaftga qanday ta`rif bergan?
7. Birinchi guruh geograflar landshaft tushunchasini qanday izoxlagan?
8. Ikkinchi va uchunchi guruh landshaftlarning landshaft turisidagi g`oyalari nimasi bilan ajralib turadi?
9. Landshaft genetik jihatdan bir butun bo`lgan geotizimdir degan fikr to`g`rimi, izohlab bering?
10. Regional geotizimlar nima?

TAYaNCh SO`Z VA IBORALAR

1. Estetik landshaft 2. Landshaft ekologiyasi 3. Yuqori havo qatlami
4. O`rta landshaft qatlami 5. Landshaft ta`rifi 6. Fitotsenoz
7. Zootsenoz 8. A.G.Isachenko 9. Landshaft tipologiyasi
10. Regional geotizim

ADABIYoTLAR

4, 9, 11, 13, 15

4 – MAVZU: LANDShAFT KOMPONeNTLARI VA LANDShAFT

HOSIL QILUVChI OMILLAR

R e J A

1. Komponent to`g`risida tushuncha
2. Landshaft komponentlari
3. Landshaft hosil qiluvchi omillar
4. Fatsiya va urochishe haqida tushuncha

Komponent - lotincha so`zdan olingan bo`lib tarkibiy qism degan ma`noni anglatadi. Landshaft ham barcha katta-kichik geotizimlar singari agregat holati nisbatan bir xil bo`lgan moddiy qismlar- komponentlardan tashkil topgandir.

Umuman olganda geografik adabiyotda komponent tushunchasi anchagina erkin talqin qilingan. Ba`zan landshaft komponentlariga qum qoratuproq, muz, yashil 6arglar, suv yuzasi kabilarni ham kiritishadi. Ba`zan esa inson tomonidan bunyod etilgan texnik inshootlar, shaharlar, yashil maydonlar ham landshaft komponentlari deb hisoblanadi.

Masalan, D. L.Ardmand (1975) agregat tarkibi bir xil bo`lgan qismlarni hayot bor yoki yo`qligini hisobga olgan holda, landshaftning komponentlari deb hisoblaydi. U tabiiy komponentlarga turli gazlar suyuqliklar, tog` jinslari, tuproq. o`simlik, qor va muz, hatto texnik inshootlarni ham kiritadi. Uning fikricha iqlim va rel`ef komponent emas, balki komponentning xususiyatidir.

F.N.Mil`kov (1990) landshaftning komponentlariga tog` jinslari, er osti va usti suvlari, tuproq. o`simlik va hayvonot dunyosini kiritadi.

Shunga o`xshash ta`rifni biz "Oxrana landshaftov" (1982) nomli izoxli lug`atda ham ko`ramiz. Unda landshaftning komponentiga geografik qobiqning litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalarning landshaft chegarasidagi qismlari kiradi deb ko`rsatilgan.

Landshaft komponentlari bir-biri bilan o`zaro aloqada bo`lib, birining o`zgarishi qolganlarining ham o`zgarishiga olib keladi. Lug`at mualliflari komponentlarni ikkiga: tabiiy va antropogen komponentlarga bo`lishgan.

Birinchisiga tog` jinslari, havo er osti va usti suvlari, tuproq. o`simlik, hayvonot dunyosini kiritsalar, ikkinchisiga turli inshootlar, qishloq xo`jalik maydonlari kabilarni kiritadilar.

Landshaftshunos olim N.A.Solntsev ikkinchi landshaft tashkil topishi va rivojlanishida turli komponentlar turlicha o`rin tutadi deydi. Ularning ba`zilari kuchli bo`lsa, ba`zilari kuchsiz hisoblanadi, N.L.Solntsev landshaft-ning komponentlarini kuchlisidan kuchsiziga tomon quyidagi tartibda joy-lashtirgan: tog` jinslari – atmosfera - suvlar - o`simlik - hayvonot dunyosi. Uningcha landshaftning geologik tuzilishi, tog` jinslarining litologik tar-kibi, rel`ef, iqlim, tuproq kabilar landshaftning komponentlari hisoblan-maydi.

Shunday qilib, yuqorida kelgirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin. Landshaftning komponentlari deb, uning tarkibiy qismlari: tog` jinslari, havo, suvlar, o`simlik va hayvonot dunyosi kabilarga aytiladi. Iqlim, rel`ef, tuproq esa, komponent emas. Ulardan birinchisi havoning, ikkinchisi tog` jinslarining xususiyatlaridir.

Uchinchisi esa tog` jinslarining havo, suv va organik hayot ta`sirida o`zgarishidan yuzaga kelgan hosiladir.

Landshaftning tashkil topish va rivojlanishida sanab o`tilgan komponentlarning qaysi biri etakchi, qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyatga ega degan savolning javobi ham mulohazalidir. Tabiiy geograflar orasida birlamchi va ikkilamchi, etakchi yoki etakchi bo`lmagan, kuchli yoki kuchsiz komponentlarni aniqlashga urinish bor. Masalan. N.L.Sol`ntsev (1960) tuzgan komponentlar tizimida geomatik komponentlar kuchli yoki rel`ef, suv, havo kabi komponentlar, biotik komponentlar (o`simlik va hayvonlar) ikkinchi darajali yoki kuchsiz hisoblanadi. Tabiiy geografik mujassamalarning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etadigan omillarning o`zaro teng emasligi haqidagi fikrni dastlab biz L.L.Grmyur`skiyning (1946) ishida uchratamiz. U tabiiy geografik omillarning eng kuchlisini "harakatlantiruvchi kuchlar" deb ataydi. Uning fikricha, harakatlanuvchi kuchlar tabiiy geog-rafik mujassamaning ko`lamiga bog`liq holda o`zgarib turadi.

Geografik mintaqalarda iqlim hodisalari harakatlantiruvchi, materiklarda geomorfologik, sektorlarda yana iqlim, zona va kichik zonalarda yana geomorfologik va nihoyat landshaftlarda gidrologik, aerogeomorfologik va fitogeografik hodisalar harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi. Bunga qo`shimcha qilib A.A. Grigor`ev aytadiki, har bir alohida holatda qaysi bir komponent eng kuchli o`zgarishni boshidan kechirayotgan bo`lsa, o`sha komponent harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Bu fikrlarni xato deb bilgan D.L.Armand (1975), komponentlarning etakchi va etakchi emasligi haqida so`z yuritir ekan, komponentlarni omillar bilan chalkashtirib yuboradi. Uning fikricha har

qanday komponent va uning xususiyati boshqa komponentlarga ta'sir ko'rsata olsa, u landshaft tashkil qiluvchi omil hisoblanadi. Qaysi bir omil boshqa komponentlarga kuchli ta'sir ko'rsata olsa-yu va ularning ta'sirida o'zi kamroq o'zgarsa, uni etakchi omil deb atash mumkin. V.B.Sochava (1974) ham geotizimlarning energetika va dinamikasini belgilab beruvchi eng harakatchan va tez o'zgaruvchan komponentlari issiqlik, namlik va biota kabilarni "kritik komponenglar" deb ataydi". Tabiiy geografik sharoitga bog'liq holda turli xil komponentlar kritik komponentlarga aylanishi mumkin. Bulardan biota komponenti kritik komponent bo'libgina qolmasdan, balki geotizimni barqarorlashtirib turadigan omil hamdir.

Ushbu masalada A.A.Krauklis (1979) bildirgan fikrlar ham e'tiborga loyiqdir. Uning yozishicha geotizimlarning mavjudligida va rivojlanishida uning tarkibiy qismlarining barchasining ahamiyati kattadir. Qaysi komponent etakchi va qaysi komponent etakchi emasligini aniqlashdan ko'ra geotizim-larning o'z holatini saqlashda qaysi komponent qay tarzda ishtirok etishini aniqlash ahamiyatliroqdir. A. A. Krauklisning o'zi esa komponentlarni geo-tizimda bajaradigan o'ziga xos vazifasiga qarab uch guruhga bo'ladi:

1) Sust komponentlar (tog' jinslari va rel'ef), ular geotizimlarning "o'zagi" hisoblanadi.

2) Harakatchan komponentlar (asosan havo va suvlar) geotizimlarning ichki qismlarini bir-biri bilan va tashqi muhit, jumladan qo'shni geotizimlar bilan bog'lovchi komponentlar hisoblanadi. U o'zidan katta bo'lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta'siriga beriluvchan va tez o'zgaruvchan bo'ladi. Buning sababi shundaki, fatsiya doirasida

uning komponentlari orasidagi aloqadorlik va bog'liqlik boshqa geotizimlardagidan ko'ra murtoq, tez shikastlanuvchan tashqi omillar ta'sirida chidamsizroq ekanligidadir. Shuning uchun ham insonning xo'jalikdagi faoliyatini geotizimlarga ta'siri va uning o'ziga xos oqibatlari dastavval fatsiyalar miqyosida ro'y beradi. Jumladan bunday o'zgarishlar fatsiyalarning eng harakatchan, tez o'zgarishga moyilroq bo'lgan biotik komponentlarida ko'zga tashlanadi va keyinchalik ularning boshqa xususiyatlari, mikroiqlimi, namlanishi, issiqlik tartibi kabilarni o'zgarishiga olib keladi. Geologik-geomorfologik shart-sharoitlari esa ko'pincha o'zgarmay qoladi. Shu sababli fatsiyalarga bo'ladigan inson ta'siri ko'rsatilsa, o'zgargan fatsiyalar yana o'zining avvalgi holatiga qaytishiga harakat qiladi.

Fatsiyalar odatda yirik miqyosdagi landshaft xaritalaridagina aks ettirilishi mumkin. Ammo landshaftlarning morfologik tuzulishini qaysi miqyosda o'rganilishidan qat'iy nazar, bari bir fatsiyalarni tadqiq qilishga alohida e'tibor berilishi kerak. Chunki har qanday landshaftning paydo bo'lishi, yashashi va rivojlanishida fatsiyalarning va ularda ro'y beradigan modda va energiya almashinishini bilishning ahamiyati katta.

Fatsiyalar tabiatan son jihatidan juda ko'p bo'lganligi uchun ularning har birini alohida-alohida hamda mukammal tadqiq qilishning iloji bo'lmaydi, natijada ularni tasnif qilish zaruriyati tug'iladi.

Ellyuvial fatsiyalar asosan rel'efning do'ng joylariga, atmosferadan ko'tarilib turgan suv ayirg'ich erlarga to'g'ri keladi. Bunday fatsiyalarda tuproq hosil bo'lish jarayoni, o'simliklar hayoti, moddaning fatsiyaga kirib kelishi asosan atmosfera orqali bo'lib, er osti suvlarining ishtirokisiz o'tadi. Mod-daning fatsiyadan chiqib ketishi esa atmosferadan tushgan

yog'in-sochinning transpiratsiyasi, infil'tratsiyasi va oqim hosil qilishi orqali bo'ladi. Nati-jada bunday fatsiyalarda moddaning kirib kelishiga nisbatan chiqib ketishi ko'proq bo'ladi, ya'ni modda almashinishida nisbiy balans yuzaga keladi.

Superakval fatsiyalar asosan er osti suvlari er yuzasiga yaqin joylashgan pastqam erlarda hosil bo'ladi. Bunday fatsiyalarda moddaning kirib kelishi faqat atmosfera orqaligina emas, balki er osti suvlari orqali hamda tevarak atrofdagi rel'efi balandroq joylardagi fatsiyalardan ham oqar suvlar orqali kirib kelishi mumkin.

Shuning uchun superakval fatsiyalarda moddaning chiqib ketishidan kirib - kelishi va to'planish jarayoni ustun keladi. Subakval fatsiyalar asosan rel'efning pastqam joylarida suv to'planib qolishi natijasida hosil bo'lgan, katta-kichik suv havzalarining ostida hosil bo'ladi. Bunday fatsiyalarda ham moddaning kelishi ketishidan ustun bo'ladi. Subakval fatsiyalarda o'simlik va hayvonlarning alohida o'ziga xos yashash shakllari kuzatiladi. Suv havzalarida tevarak atrofdagi baland joylardan yuvilib kelgan kimyoviy unsurlar ichida eng harakatchanlarining ustunligi kuzatiladi.

B.B. Polinov tomonidan ishlab chiqilgan bu tasnifning ko'rinishi turli landshaftlar sharoitida ishlatilishi mumkin bo'lgan umumiy ko'rinishdagidek bo'lib, har bir o'ziga xos mahalliy sharoitda oraliq fatsiya turlari bilan to'ldirilishi va aniqlashtirilishi mumkin. Masalan, M.A.Glazovskaya (1964) yonbag'irlarning yuqori qismida transelyuvial yonbag'irlarning quyi qismida elyuvial-akqumulyatsiya, pastkam, ammo er osti suvlari chuqur bo'lgan joylarda akqumlyativ-elyuvial fatsiyalarni ajratish hamda superakval fatsiyalarni transsuperakval fatsiyalarga,

subakval fatsiyalarni esa akval va transakval fatsiyalarga ajratishni taklif etadi.

Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng asosiylaridan biri urochishedir. Urochishe bir mezorel`efda joylashgan tabiiy hududiy mujassama bo`lib, genetik va dinamik jihatidan uzviy bog`liq bo`lgan fatsiyalar tizimidan iboratdir. Landshaftlarning alohida urochshelariga bo`linishida uning litogen asosi rel`ef hamda tog` jinslarining ekologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir.

Urochishelar landshaftda egallagan maydoni va tarqalishiga qarab asosiy (yoki xuqumron) hamda ikkinchi darajali urochishelarga bo`linadi. Asosiy urochishelar landshaftlarning morfologik tarkibsini belgalab berishi bilan birga keng ko`lamda tarqalganligi bilan ikkinchi darajali urochishelar esa tarqalish ko`lami kamligi bilan tavsiflanadi.

Urochishelar o`zini ichki tuzilishiga qarab oddiy va murakkab bo`lishi mumkin. Oddiy urochishelar mezorel`efning har bir qismi faqat bitta fatsiya bilan band bo`ladi. Murakkab urochishelar tarkibida esa mezorel`efning bir qismida fatsiya qismi yoki urochishechalar (podurochishe) joylashgan bo`ladi.

Urochishecha oraliq birlik bo`lib, asosan mezorel`efning bir qismida joylashgan fatsiyalar to`yimli moddalar, namlik va issiqlik taqsimlanishidagi jarayonlarning umumiyliги bilan bir-biriga bog`liqdir. Masalan, urochishechalar bir urochishening ichida turli ekopozitsiyaga ega bo`lgan hollarda ajratilishi mumkin.

Urochishelar ham fatsiyalar yoki landshaftlar kabi er yuzida keng tarqalganligi sababli ularni ham ma`lum guruhlariga yoki sinflarga birlashtirish, ya`ni tasnif qilishga to`g`ri keladi. Urochishelarning dastlabki

tasnifini Yu.M.Tsesel`chuk (1963) bajargan. To`rt pog`onalik bu tasnif tur-kichik tur-xil-kichik xil ko`rinishida bo`lib, eng katta birlik sifatida urochishe turi ajratilishi kerakligini uqtiradi.

Urochishe turlari mezorel`ef shakllariing kelib chiqishi, dinamikasi hamda biokimyoviy va mexanik rivojlanishi yo`nalishidagi o`xshashliklar asosida ajratiladi.

Urochishelarning keyingi tasnif birligi xildir. Xillar asosan urochishelarni tashkil qiluvchi tub fatsiyalarning tuproq-o`simlik qoplamidagi o`x-shashliklarga asosan aniqlanadi. Kichik xillar esa urochishelardagi tuproq-o`simlik qoplamining shakllanishidagi azonal (zonal bo`lmagan) omillar o`xshashliklar asosida aniqlanadi.

Urochishelar tasnifining yanada mukammalrok ko`rinishdakisini A.A.Vidina (1973) tavsiya etgan. U o`rta rus balandligining g`arbiy yonbag`ridan oqib tushadigan ikki daryo (Vitebeti va Nugra) havzalarida joylashgan 950 ta urochishe va urochishechalarni aniqlab xaritaga tushirgan va tasnif qilgan. U bajargan urochishelar tasnifi 8 ta jadval ko`rinishida bo`lib, ularda urochi-shelar va urochishechalar eng avval morfogenetik jihatdan tutgan o`rniga ko`ra 5 ta katta guruhga, keyin geomorfologik belgilar asosiga 48 ta variantga va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning xususiyatlari asosida yana 50 ta vari-antga bo`lib tashlangan. Mazkur tasnif urochishe va urochishechalarning asosiy xususiyatlarini belgilab beradigan 4 ta geologik, geomorfologik gidrologik va tuproq, ayrim hollardagina geobotanik omillar hisobiga olingan.

A.G.Isachenko (1965) fikricha urochishelarni tasnif qilayotgan vaqtda ularning zonal va provintsial xususiyatlari hisobga olinishi va har bir tur yoki xilga mos bo`lgan fatsiyalar majmuasiga e`tibor berish kerak bo`ladi.

Umuman olganda urochishelar tasnifi xuddi fatsiyalar tasnifi kabi puxta va har tomonlama mukammal ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi landshaftlarning morfologik qismlarini xaritaga tushirish tajribasi ham kam ekanligidir.

Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng kattasi joy (mestnost`) deb ataladi. Joy deganda ma`lum landshaft uchun xos bo`lgan urochishelar yig`indisining alohida varianti tushuniladi.

Geografik adabiyotda "joy turi" degan atama ham tez-tez uchrab turadi (F.N.Mil`kov, 1956). Joy turi landshaftlarning morfologik qismi hisoblanmaydi, ammo u ham xo`jalikda foydalanishi nuqtai-nazaridan qaraganda nisbatan bir xil bo`lgan yirik tabiiy hududiy mujassama va urochishelarning majmuidan iboratdir.

Shunday qilib, landshaft o`zidan kichik bo`lgan mujassamalardan, ya`ni morfologik qismlardan tashkil topgan murakkab tabiiy hududiy mujassamadir. Landshaftning har bir morfologik qismi ham o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan mujassama deb qaralishi bilan birga, ular ayrim o`xshash belgilarga asoslangan holda tasnif qilinishi mumkin, ya`ni tipologik birlik sifatida qaralishi mumkin.

Landshaftning morfologik qismlari orasidagi aloqadorlik tavsifi landshaftning gorizontal yoki morfologik tuzilishi deyiladi. Landshaftning morfologik tuzilishi uni boshqa toifadagi tabiiy hududiy mujassamalardan ajratib olishda ishonchli belgi bo`lib xizmat qiladi va landshaftlarni chegaralab olishda aniq mezon bo`la oladi.

Har qanday landshaftning morfologik tuzilishini tarixiy shakllangan tizim deb qarash kerak bo`ladi. Shuning uchun landshaftning morfologik tuzilishini o`rganish uchun genetik qoidaga asoslanish lozim. Bunda har

bir tabiiy hududiy birlik tarixan shakllangan deb karalishi va uning rivojlanishi qonuniyatlari ham aniqlanishi kerak.

Shunday qilib, landshaftlar, boshqa har xil geotizimlar singari komponentlardan, ya'ni tarkibiy qismlardan tuzilgandir. Shu bilan birga o'zidan kichikroq bo'lgan geotizimlardan, ya'ni morfologik qismlar majmuidan iboratdir. Landshaftlar ochiq geotizim bo'lganligi uchun ular ma'lum muhitda shakllanadi va yashaydi, yon atrofdagi qo'shni landshaftlar bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi, ya'ni har bir landshaft o'zidan katta bo'lgan geotizimning bir qismi hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Landshaft hosil qiluvchi omillar nima?
2. Komponent so'zining ma'nosi nima?
3. Landshaft komponentlariga nimalar kiradi?
4. Iqlim va rel'ef landshaft komponenti bo'la oladimi?
5. N.A.Solntsev landshaft komponentlarini qay tartibda joylashtiradi?
6. etakchi landshaft komponentlariga nimalar kiradi?
7. Komponentlar vazifasiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
8. Sust komponentlar nima?
9. Harakatchan komponentlarga qanday komponentlar kiradi?
10. Urochishe va fatsiya o'rtasida qanday tafovut bor?

TAYaNCh SO`Z VA IBORALAR

1. Landshaft komponentlari
2. Tabiiy komponentlar
3. N.A.Solntsev

4. D.L.Armand 5. Asosiy komponentlar 6. Ikkilamchi komponentlar
7. Tog` jinslari 7. "Kritik komponentlar" 8. Urochishe 9. Fatsiya

ADABIYOTLAR

2, 4, 5, 7, 9, 11, 13

5 - MAVZU: LANDSHAFTLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI VA ICHKI ALOQADORLIKLARI

R e J A

1. Landshaftlar morfologiyasi haqida tushuncha
2. Fatsiya va urochishelar to`g`risida ma`lumotlar
3. Landshaftlarning ichki tuzilishi
4. Landshaftda o`zaro aloqadorlik va bog`liqliklar

Yuqorida biz landshaftlarning qanday tarkibiy qismlardan, ya`ni komponentlar va morfologik qismlardan tuzilganligini ko`rdik. Ammo landshaftning komponentlari va morfologik qismlarining makonda, joylashishi tartibini aniqlash bilan landshaftning ichki tuzilishini va asosiy xususiyatlarini belgilab olishimiz qiyin. Landshaftning ichki tuzilishini tahlil qilish landshaft tadqiqotlariniig eng muhim va murakkab bosqichlaridan biridir.

Landshaftning ichki tuzilishi deganda biz faqat uning komponentlari va morfologik qismlarining joylashish tartibinigina emas, balki ular orasida muttasil ro`y berib turadigan o`zaro ta`siri va aloqadorlikni ham tushinamiz. Har bir landshaftdagi o`zaro ta`sir va aloqadorliklarni

o`rganish orqali landshaftga xos bo`lgan asosiy xususiyatlarni ham bilish mumkin.

Landshaftda ro`y beradigan o`zaro ta`sir va aloqadorliklarning ikki xili mavjuddir. Ulardan birinchisi vertikal yo`nalishdagi o`zaro ta`sir va aloqadorliklar bo`lib, asosan landshaftning komponentlari orasida modda va energiya almashishi oqibatida yuzaga keladi.

Landshaftdagi modda va energiyaning vertikal almashinishiga misol qilib suv yuzasidan bo`ladigan bug`lanishni, suv bug`larini kondensatsiyalanishini, yog`in yog`ishi kabilarni aytish mumkin. Bunda nafaqat suv yoki suv bug`lari, balki turli xil moddalar va kimyoviy usullar ham bir komponentlardan ikkinchisiga, undan uchinchisiga o`tib turishi mumkin.

Ikkinchi xil o`zaro ta`sir va aloqadorliklar gorizontaal yo`nalishda ro`y beradigan aloqadorliklar bo`lib, landshaftning morfologik qismlari orasida modda va energiya almashinishi orqali hosil bo`ladi.

Gorizontaal yo`nalishda ro`y beradigan aloqalar mavjudligining omillaridan biri landshaftlarning va uning morfologik qismlarining yonmayon bo`lib joylashganligidir.

Gorizontaal aloqalarga modda va energiyaning iqlimiy aylanib yurishi, ayniqsa, issiqlik va namlikning ko`chishini belgilab beruvchi havo massalarining harakati ko`proq ta`sir etadi.

Yana bir omil ekzogen jarayonlardir. Bu jarayonlar turli landshaftda har-xil kuch va har-xil jadallik bilan kechadi. Gravitatsiya ham qurumlar, surul-malar, qor ko`chkilari hosil bo`lishida, oqar suvlarning ishi unga bog`liq holda ko`chib yurishi bir joydan ikkinchi joyga to`planishi sabab bo`ladi. Landshaft-larning tarkibiy qismlari orasida va morfologik qismlari

orasida bo`ladigan aloqadorliklar haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun quyidagi landshaft modellarini ko`rish mumkin.

Landshaftda ro`y beradigai o`zaro ta`sir va aloqadorliklar modellarda aks etgandek ko`pincha ikki tomonlama bo`lib, juda oddiy ko`ringani bilan as-lida murakkab va dinamik jarayonlarning yig`indisidan iborat. Bu jarayonlar makonda ham, zamonda ham juda o`zgaruvchandir. Modda va energiyaning vertikal yo`nalishida ham gorizontal yo`nalishda almashinib turishi jarayoni ham o`zaro ta`sir va aloqadadir. Masalan, landshaftga kirib kelayotgan quyoshning issiq-lik energiyasi gorizontal harakatdagi havo massalarining energiyasi bilan, vertikal yo`nalishda kirib kelayotgan atmosfera yog`inlarining er osti va er ustki suvlari bilan o`zaro ta`sir va aloqada bo`lishini inkor etishi qiyin.

Landshaftda ro`y beradigan vertikal va gorizontal aloqalarni o`zaro ta`sirda bo`lishini landshaftning vertikal kesmasida ko`rish mumkin. Bunday ikki xil aloqadorlik bir vaqtning o`zida ro`y beradi. Vertikal yo`nalishda harakatlanayotgan modda va energiyaning ma`lum bir qismi gorizontal yo`nalishda harakatlanayotgan modda va energiyaga qo`shilib ketishi va aksincha bo`lishi tabiiydir. Ikki xil yo`nalishda harakatda bo`lgan modda va energiyaning o`zaro qo`shilib aralashib ketishi natijasida turli xil aloqadorliklar hosil bo`ladi. Ularning tahlil qila bilish atrof muhitning ifloslanishi va uning oldini olish masalalarini hal qilishda katta ahamiyatga egadir.

Bir komponentdan ikkinchisiga yo`nalgan doimiy, aniq va nisbatan bar-qaror bo`lgan aloqalar to`g`ri aloqalar deyiladi. Bunday aloqalarga tektonik aloqalar tektonik tarkiblar bilan rel`ef orasidagi, rel`ef bilan iqlim, iqlim bilan suvlar orasidagi aloqalarni misol tariqasida keltirish mum-kin.

Iqlim omillari, jumladan atmosfera yog`inlari daryolarning to`yinishi, suv va boshqa ko`pgina oqim ko`rsatkichlarini belgilaydi. Suv oqimining tuproq hosil bo`lish jarayonida tutgan o`rni ham ma`lum. Tuproq bilan o`simlik, o`simlik bilan hayvonot orasidagi aloqalar ham to`g`ri aloqalarga kiradi.

Landshaft komponentlari orasidagi turli omillar bilan jarayonlar orasidagi bog`liqlik va aloqadorliklarni ayrim modellarini biz A.P.Gal`tsov (1964), G.D. Rixter (1968), D.L.Armand (1975) kabilarning ishlarida uchrata-miz. Bunday modellarning ko`pchiligi shuni aks etgiradiki, modda va energiya-ning vertikal yo`nalishda ko`chib yurishi tabiatdagi moddalarning aylanma harakatini boshqarib turadi. Yana bir narsani eslatib o`tash kerakki, organik moddalarning aylanma harakatida organik moddaning hosil bo`lishi va parcha-lanishidan tashqari, ya`ni uni minerallashishi yoki chirindiga aylanishidan tashqari ozuqa zarjirlari ham ishtirok etadi. Shuning uchun ham tabiatda chiq-indi degan narsannng o`zi bo`lmaydi va organik moddalarning aylanma haraka-tini tabiatdagi nisbiy muvozanatga misol tariqasida keltirsa bo`ladi. Ammo bunday nisbiy muvozanat faqat cheklangan vaqt davomidagina mavjud bo`lib, bari bir tabiiy jarayonlarning so`nggi natijasi landshaftdagi qayta tiklan-maydigai o`zgarishlar ekanligidan dalolat beradi. Ana shu sust davom etadigan o`zgarishlar landshaftning tabiiy rivojlanishini asosi hisoblanadi.

Yuqorida eslatib o`tilgan modellar landshaftdagi aloqalariing ko`pincha juda murakkab va serqirra ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga land-shaftlarning tashkil topishi, shakllanishi, mavjudligi va tabaqalanishi muammolarni hal etish uchun ham ko`p ilmiy izlanishlar o`tkazish zarurligini taqozo etadi.

Landshaftlarning morfologik qismlari orasida ham o`zaro ta`sir va aloqadorliklar, ya`ni modda va energiya almashinib turishi mavjud bo`lib, ular ikkinchi xil, ya`ni teskari aloqalarga kiradi. Landshaftlarda ko`proq ana shunday aloqalar hukmronlik qiladi.

Teskari aloqalar landshaftning tashqarisidan ta`sir etadigan kuchlarga yoki "turtki"larga karshilik ko`rsata olish xususiyati borligini belgilaydi va ularning o`zini-o`zi boshqarib turishga, barqarorlik holatini saqlab turishga sharoit yaratib turadi, landshaftshshg tashqi kuchlar ta`siriga chidamliligiii ta`minlab turadi.

Teskari aloqalarning o`zi ijobiy va salbiy bo`lishi mumkin. Ijobiy teskari aloqalar tashqi kuchlar landshaftga qaysi yo`nalishda ta`sir etsa, o`sha yo`-nalishda ta`sir ko`lamini kuchaytirib boradi va zanjirsimon reaksiyaga sabab bo`ladi. Oqibatda landshaftda keskin qor ko`chkisiga o`xshash o`zgarishlar ro`y berishi mumkin. Ijobiy teskari aloqalar muttasil harakatda bo`lmaydi va cheksiz o`zgarib turish holatiga ega bo`lmagan elementlar bilan cheklangandir.

Salbiy teskari aloqalar landshaftning morfologik qismlarining barchasiga taalluqli bo`lib, ularning birortasida o`zgarish bo`ladigan bo`lsa, unga qarshi ishlaydi va yana landshaftda barqarorlik holatini tiklashga harakat qiladi. Shuning uchun ham landshaftga tashqaridan doimo modda va energiya kelib turishiga qaramay u o`zining nisbatan barqarorligini saqlab tura oladi.

Landshaftlarning vertikal yo`nalishda ham, gorizontal yo`nalishda ham geotizimlar asosiy hisoblanadi. Chunki muayyan bir landshaft atrof-muhit bilan, yonveridagi qo`shni landshaftlar bilan ham doimo energiya almashinib turadi. Har bir landshaftda ro`y beradigan modda va energiya

almashinuvi unga kirib kelayotgan modda va energiyaga tenglashishga harakat qiladi. Landshaftga yoki uning morfologik qismlaridan biriga kirib kelayotgan modda va energiya oqimi landschaft yoki uning morfologik qismi tomonidan turli xil aks ta'sir jarayonini keltirib chiqaradi.

Landshaftlarning ichida ro'y beradigan o'zaro ta'sir va aloqalarni birma-bir aniqlab, bir tartibga solib olishning o'zi nihoyatda murakkab ishdir. Landshaftda olib borilgan bir yoki ikki marta kuzatishlarning natijasiga tayanib bunday ta'sir va aloqalar haqida fikr yuritishning o'zi noto'g'ri bo'ladi. Buning uchun juda ko'p va ommaviy kuzatishlarning natijalari, ularning chuqur tahlili zarur bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, landschaftlarning tarkibiy qismlari orasida ham, morfologik qismlari orasida ham qo'shni landschaftlar bilan ham o'zaro ta'sir va aloqadorliklar mavjud bo'lib, ular makon va zamonda o'zgaruvchandir.

Landshaftning tarkibsini belgilab beruvchi o'zaro ta'sir va aloqadorliklar bir tomonlama va ikki tomonlama, to'g'ri va teskari, ijobiy va salbiy, qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Ularning har biri o'ziga xos murakkab jarayonlar bo'lib turli xil oqibatlariga sabab bo'ladi.

Landshaftning ichki tuzilishi degan tushunchaga landschaftning komponent-lari va morfologik qismlarining makonida joylashish tartibi va ular orasi-dagi o'zaro ta'sir va aloqadorliklardan tashqari landschaftning zamondagi ma'lum va qonuniy holatlari majmuyini ham kiritish kerak bo'ladi. Bunday holatlar majmuyini e'tirof etish landschaftning zamonda o'zgaruvchan va dina-mik geotizim ekanligini e'tirof etishdir.

Landshaftning u yoki bu holati aniq vaqt chegarasiga ega emas. Ko'pincha an-iqlangan landschaft holatlarining uzun yoki qisqaligi shu

holatlarga xos bo`l-gan bir yoki bir nechta tabiiy jarayonlarning mavjudlik vaqtiga mos keladi.

Landshaftlarda aniqlanishi mumkin bo`lgan bunday holatlar turli vaqt bo`laklarini qamrab oladi. Ba`zi holatlarning davomiyligi ma`lum qoidalar bo`yicha belgilangan bo`lsa, ba`zi holatlarning davomiyligi tasodifiy bo`lishi mumkin. Masalan, landshaftlarning kunduzgi va tungi, fasliy va yillik holatlari urning harakatlariga bog`liq holda ularning davomiyligi aniq belgilangandir. Landshaftdagi ayrim holatlar esa buning aksicha tasodifiy bo`lishi, ularning davomiyligi ham tasodifiy jarayon ko`rinishida bo`ladi. Masalan, shamolli, bulutli, yog`in-sochinli, sovuq haroratli yoki issiq haroratli holatlar kabi.

Landshaftlarning ichki tuzilishini aniqlash va tahlil qilishda belgilanishi ahamiyatli bo`lgan landshaftning holatlari, landshaftlarning dinamikasini, rivojlanishini va yashashini o`rganish ham muhimdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Morfologiya nima?
2. Landshaftlarning morfologik tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Landshaftlarning morfologik birliklariga nimalar kiradi?
4. Landshaft birliklari nima?
5. "Elementar landshaft" qanday landshaft birligi hisoblanadi?
6. Landshaftning morfologik birliklari ichida eng kattasi qaysi birlik hisoblanadi?
7. Landshaftning ichki aloqadorliklariga nimalar kiradi?

8. Vertikal va gorizontal aloqalarning o`zaro ta`siri qanday ro`y beradi?
9. Landshaft komponentlari orasidagi bog`liqlikni qanday jarayonlarda ko`rish mumkin?
10. Landshaftning ichki tuzilishi qanday tushunchani beradi?

TAYaNCh SO`Z VA IBORALAR

1. Morfologiya 2. Landshaft morfologiyasi 3. Morfologik birliklar
4. Landshaft birligi 5. Joy turi 6. Geokimyoviy landshaft
7. Fatsiyalar tasnifi 8. Landshaftning ichki tuzilishi 9. Teskari aloqalar
10. Landshaftda moddaning aylanma harakati

ADABIYoTLAR

2, 3, 4, 7, 9, 11, 13